

ABULG'OZI BAHODIRXON TARIXCHI VA ADIB

**Toshboyeva Farangiz Cho'ponboy qizi,
Bo'riqulova Madinabonu Baxriddin qizi,
Raxmonqulov Ma'murjon G'ofurjon o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 2 kurs talabasi

ARTICLE INFO.	Annotation
<p>Keywords: Abulg'ozni Bahodirxon, Shajarai turk, Shajarai tarokima, Chingizxon, tarixnavislik, turkmanlar, Xorazm, O'g'uzxon</p>	<p>:“Abulg'ozni Bahodirxon tarixchi va adib” nomli maqolada Xiva xoni Abulg'ozni Bahodirxon XVII asrning I yarmida yashagan hukmdor hisoblanadi. Uni biz nafaqat xon sifatida balki tarixchi, olim va adib sifatida ham bilishimiz mumkin. Uning asarlari “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asarlari Xorazm tarixi uchun katta ahamiyat kasb etadi.</p> <p>http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2022 LWAB.</p>

Abulg'ozni Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatini yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar, taxirnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'ozni otobobolarining puntisizliklari tufayli yozilmay qolib ketayotgan xonlik tarixini yaratishga qat'yirishdi va qobiliyatli xattotlarni o'tmish madaniyati Abulg'ozida katta ishtiyoq va qiziqish uyg'otgan edi.[1]

Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlar haqida gapiradigan bo'lsak shubxasiz, Abulg'ozixonning “Shajarai turk” asari yetakchi o'rin egallaydi. Bundan tashqari Abulg'ozixonning “Shajarai tarokima” asari bilan Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solgan shaxsdir.[2]

Abulg'ozidan ikki tarixiy asar qoldi. Ulardan bittasi “Shajarai tarokima” (1658-1661 yil orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) turkiy qabilalarining, xususan turkman xalqining kelib chiqishim haqida qimmatli ma'lumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O'g'uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek turkman urug'larining kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. “Shajarai tarokima” Abulg'ozixonning o'z so'zlariga qaraganda, turkman mullalarini, shayxlari va baklarining iltimosi bilan yozilgan.[3]

Asarda Odam ato avlodlari Muhammad alayxissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslamadi. Shuningdek Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o'tilgan. “Shajarai tarokima” asari Abulg'ozni Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilganligi takidlangan. “Shajarai tarokima” yozma manbasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlari, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlari bayon etilgan, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi inoqlik o'rnatilishi takidlangan.[4]

Abulg'ozining sanat va adabiyotga ahamiyat bergani, Xorazmda ilm-fanning taraqqiyotiga ancha kuch sarf qilganini ham alohida qayt etmoq kerak. Shuningdek, uning qo'shni xalqlari, birinchi navbatda turkmanlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy hamkorlikni

rivojlantirishga harakat qilganligi ham maqtovga sazovordir.[1]

Abulg'ozzi Bahodirxon 1630-1640 yillari Eronning Isfaxon shaxrida siyosiy tutqunlikda yashagan davrlarda Rashididdin, Sharofiddin Ali Yazdiy kabi tarixchilarning asarlari bilan tanishgan. Bu asarni yozganda Eron va Turonning tarixiga oid o'n sakkizta manbalardan hamda xalq og'zida saqlanib qolgan rivoyatlardan foydalangan. Asarning o'nlab qo'l yozma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli kutubxonada, Ashxabotdagi Turkmaniston Fanlar akademiyasi kutubxonasida, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Leningrad bo'limida hamda Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Biz asarni nashrga tayyorlashda A.N.Kononov tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan eng ishonchli va to'liq nusxasi asosida qiyosiy metod bilan 1958 yili Moskva va Leningradda nashr qilingan arab yozuvi matnididan foydalangan.[4]

Abulg'ozixonning ikkinchi asari "Shajarai turk" nomi bilan mashhur. Asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI-XII asrlarning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini yozadi.[3]

Abulg'ozzi "Shajarai turk" asarida har tomonlama yetuk bilimdon olim sifatidagina emas, balki tarixiy voqealarni betakror badiiy til bilan ifoda qila oluvchi so'z sanatkori sifatida ham gavdalanadi. "Shajarai turk" faqat tarixiy kitob sifatida emas, balki adabiy yodgorlik sifatida ham nodir va noyob asardir. Unda muallifning tarixiy voqealarni badiiy uslubda berishga intilishi, badiiy manzara, lavha kishilar va boshqa jihatlar kitobning nasriy asar sifatidagi qiymatini belgilaydi. Abulg'ozzi kelgusi avlodlarga tuxfa qilib qoldirajak asarini yaratishga kirishar ekan, uydirma va soxtaliklarga yo'l qo'ymaslikka, tarixidan chetga chiqmaslikka harakat qiladi. Abulg'ozzi Bahodirxon mazkur asarni bitishda forsiy va turkiy tillarda yozilgan o'n sakkizta manbaga tayanadi. Bu haqida uning o'zi shunday deydi: "Eron bilan Turonda o'tgan Chingizxon o'g'illarining otalarini aytgan tarixlardan ushbu zamon faqirning oldida o'n sakkiz mujollik hozir turardi. Abulg'ozzi o'z ona tilini yaxshi bilganidek fors-tojik shuningdek, mog'ul tillarini ham puxta egallagan edi. U o'z asarlarini ona tilida yozdi. Abulg'ozzi Bahodirxon: "Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin deb, turk tili bilan aytdim. Bir kalima Chig'atoy turkiydan, forsiydan va arabiydan qo'shmayman ravshan bo'lsin deb, turkiyni ham andoq aytibmanki, besh yashar o'g'lon tushunur", deb yozadi.[1]

Asar qisqa muqaddima va to'qqiz bobdan iborat: 1) Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo'g'ilxongacha kechgan xodisalar zikri; 2) Mo'g'ilxondin-Chingizxongacha bo'lgan tarix; 3) Chingizxonning tug'ilganidan to vafotigacha tarixi; 4) Chingizxonning uchinchi o'g'li O'gidayxon (1227-1241 yillari otasi o'rinda o'tirgan) va avlodi, Chingizxonning boshqa o'g'illari naslidan bo'lgan va Mo'g'ilistonda podsholik qilganlar zikri; 5) Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon (Movoraunnahr, Yettisuv viloyati va Sharqiy Turkiston ustidan 1227-1241 yillar podsholik qilgan) avlodidan Movarounnahr va Qashg'arda podsholik qilgan avlodining zikri; 6) Chingizxonning kenja o'g'li To'liyxon avlodidan Eronda podsholik qilganlar (ular tarixida elxoniyalar deb ataladi; 1256-1336 yillar hukmronlik qilganlar zikri); 7) Chingizxonning ulug' o'g'li Jo'jixon (1227 yil otasidan taxminan 6 oy avval vafot etgan) avlodi Dashti qipchoqda (Hozirgi Qozog'iston va to Dneprgacha bo'lgan janubiy Rassiya yerlari tarixda XI-XV asrlarda shu nom bilan atalgan) podshoh bo'lganlar zikri; 8) Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon (XIII asr) avlodidan Movarounnahr, Qrim, Qozoq va Turonda xonlik qilganlar shuningdek, Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temurxon zikri; 9) Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podsholik qilganlar zikri; haqida bayon qilingan.[3]

Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug'illangan Abulg'ozixon tarixchi, tabib sifatida ham bebaxo meros qoldirgan. Taxminan 1658-yilda Abulg'ozzi tabobatga oid "Manafi ul-inson" (insonga foydali narsalar) nomli asarini yozgan.[5]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm madaniyati tarixi, adabiyoti bilimdoni hisoblangan Abulg'ozzi Bahodirxondir. U davlat boshqaruvini faqatgina qurol bilan olib boribgina qolmay balki

qalam bilan ham kurash olib borgan hukmdor sanaladi tarixda. U sharq hukmdorlari kabi sharq xalqlari tarixini madaniy merosini o'rgangan ilm-fanga e'tiqod qilgan mamlakatda oyoyishtalik o'rnatishga harakat qilgan hukmdor, adib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Abulg'ozzi Bahodirxon tarixchi va adib" Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti. 1994-yil. 1-6 betlar.
2. A. Sagdullayev, B. Aminov, O'. Movlonov, N. Norqulov. "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". Toshkent "Akademiya" 249- bet.
3. Muxarrir Azim O'ktam "Abulg'ozzi Shajarai turk". Toshkent "Cho'lpon" 1992-yil, 5-6 betlar.
4. Muxarrir To'lqin Alimov "Abulg'ozzi Bahodirxon Shajarai tarokima" Toshkent 1995-yil, 2-bet.
5. B. J. Eshov, A. A. Odilov "O'zbekiston tarixi" 1-jild Toshkent 2014-yil, 456-bet.